

BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI SAMARALI O`QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR VA PSIXOLOGIYANING TUTGAN O`RNI

Shamiddinova Sarvinoz Saloxiddin qizi

O`zbekiston davlat Jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada umumiy o`rta talim maktablarida boshlang`ich sinf o`quvchilariga ingliz tilini tez va oson o`qitish uchun zamonaviy metodlardan foydalanish va ularning samaradorligi hamda bunda psixologiyaning tutgan o`rni haqida batafsil yoritib berilgan.*

Kalit so`zlar: *boshlang`ich sinf, zamonaviy metodlar, chet tili, bolalar, , tez va oson, pedagogik psixologiya ,psixogimnastika, pedagogik mahorat.*

Аннотация: *В данной статье подробно описано использование современных методов и их эффективность при обучении английскому языку учащихся начальных классов общеобразовательных школ, а также роль психологии в этом.*

Ключевые слова: *начальный класс, современные методы, иностранный язык, дети, быстро и легко, педагогическая психология, психогимнастика, педагогическое мастерство.*

Abstract: *This article explore the effectiveness of using modern methods in teaching English language quickly and easily to the student of the primary school and the importance of psychology.*

Key words: *primary school, modern methods, English language, children, quickly and easily, pedagogic psychology, psych gymnastic, pedagogic skill.*

Ma`lumki, hozirgi rivojlanayotgan davrda, har bir sohada,ayniqsa, ilm-fan sohasida sezilarli darajadagi o`zgarishlar va yutuqlarga erishilmoqda. Mustaqillikka erishilgandan so`ng, mamlakatimizda ilm-fan sohasiga,shu jumladan chet tillariga bo`lgan e`tibor yanada kuchaytirildi.. Mamlakatimizda “Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorga muvofiq, 2013-yildan boshlab umumiy o`rta ta`lim maktablarida boshlang`ich sinf o`quvchilariga ham chet tilini o`qitish yo`lga qo`yildi. Ushbu qarorga muvofiq chet tillarini, asosan, ingliz tilini boshlang'ich sinfdan boshlab o'rgatish, bolalarning chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish uchun barcha umumta'lim maktablarda 1-sinfdan boshlab ingliz tili darslarini turli xil qiziqarli o'yinlar tarzida o'qitish va shu bilan birga o'quvchilarning og'zaki nutqini ham rivojlantirish, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitishni zamonaviy, innovatsion usullar orqali olib borish bosqichma-bosqich yo`lga qo`yildi. Yosh avlodni chet tillarida o`qitish, shu tillarda

erkin soʻzlasha oladigan mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari va axborot resurslaridan keng koʻlamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun imkoniyatlar yaratish bosh maqsad etib belgilandi. Boshlangʻich taʼlim oʻquv dasturiga ingliz tilini kiritish qarori quyidagi xulosalarga asoslanib maʼqullangan:

- kichik yoshdagi bolalar yaxshiroq va osonroq oʻrganishadi.

- uzoqroq oʻrganish davri maktab taʼlimi yakuniga qadar malakalarning yuqoriroq darajada egallanishiga olib keladi.

Shuningdek, mamlakatimiz umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻquvchilarga chet tilini samarali oʻqitish maqsadida xorijiy davlatlar bilan hamkorlik qilgan holda turli xil oʻquv kitoblar va qoʻllanmalar ishlab chiqarmoqda.

Bugungi kunda har bir fanni zamonaviy innavatsion texnologiyalar hamda turli xil metodlardan foydallangan holda oʻrgatish eng muhim talablardan biriga aylangan. Chunki axborot texnologiyalari va zamonaviy oʻqitish usullaridan foydalanish yangi materiallarni tez va oson tushunishga yordam beradi.

Maʼlumki, boshlangʻich sinf oʻquvchilari 7-10 yosh atrofida boʻlishadi va bu davrda ularga ingliz tili grammatikasini oʻqitish deyarli imkonsiz, chunki ular bu yoshda xattoki oʻz ona tili gramatikasi haqida yetarli tushunchaga ega boʻlishmaydi. Agar ularga birdaniga ingliz tili grammatikasini oʻqitishsa, ular buni tushuna olmaydi va bu ularda tilni oʻrganishga boʻlgan xohishning sustlashishiga yoki batamom yoʻqolishiga sabab boʻladi. Shuning uchun ularga ingliz tili darsi turli xil qiziqarli oʻyinlardan foydalangan xolda oʻtilishi kerak. Shu yoʻl bilan ularda ingliz tilini oʻrganishga boʻlgan qiziqishni uygʻotish va ularni bu tilni yaxshiroq oʻrganishga undash mumkin. Boshlangʻich sinf oʻquvchilariga koʻproq soʻz boyligini oshirishga qaratilgan metodlardan foydalanib dars oʻtish samaraliroq. Boshlangʻich sinf oʻquvchilariga ingliz tilini qiziqarli va mazmunli yoʻl bilan oʻqitish uchun quyida keltirilgan usullardan foydalanish mumkin :

- Kichik hajmdagi bolalarga xos bolgan multfilmlardan foydalanish; Bolalar bu yoshlarida multfilmda ishlatilayotgan soʻzlarni bilmasligi mumkin, lekin ular multfilmdagi personajlarning harakatlari orqali soʻzlarni maʼnosini tushunishi va eslab qolishi mumkin.
- Mavzuni unga bogʻliq boʻlgan turli xil koʻrgazmali qurollar yordamida oʻtish; Masalan, mevalar, sabzavotlar haqida mavzu oʻtilganda ularning rasmlaridan yoki oʻyinchoq shaklidan foydalanish yoki ranglar haqida oʻtilganda turli xil ranglardagi pufaklardan foydalangan holda darsni olib borish oddiygina anʼanaviy tarzda oʻtilgandan dasrlardan samaradorligi bilan ancha farq qiladi.

Bu davrda bolalar ko`proq ko`rgan narsalarini eslab qolishga moyil bo`ladi va bu yo`l bilan ularning ingliz tili so`z boyligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

- Flashcards (kichik hajmli turli shakldagi kartalar) ;

Bu o`yinda o`qituvchi o`quvchilarga turli xil rasmlar tushirilgan kartalar beradi va ular ramzdagi narsaning inglizcha nomini topishi va shu so`zdan foydalangan holda sodda gap tuzishlari kerak bo`ladi.

- Spelling game(imlo o`yini)

Bu ham yana bir qiziqarli o`yinlardan biri hisoblandi. Bu o`yinda o`qituvchi oldingi mavzularda o`rganilgan so`zlarni ingliz tilida harfma-harf aytib turadi, o`quvchilar esa ularni eshitib yozishlari kerak. Ma`lumki, ingliz tilida har bir harf o`zgacha talaffuz qilinadi va bu o`yin o`quvchilarga harflarni bir- biridan ajrata olish hamda so`zlarni imloviy jihatdan to`g`ri yozishga o`rgatadi. Shu bilan birga, bu metod o`quvchilarni avvalgi mavzularda keltirib o`tilgan so`zlarni qayta ko`rib chiqishga undaydi.

- The Total Physical Response (TPR)metodi (jismoniy javob)

Bu metod orqali o`quvchilarga ingliz tilini turli xil harakatlar orqali o`rgatish mumkin. Bu o`yinda o`qituvchi ingliz tilida turli harakat fe`llarini ketma-ket tarzda aytadi, o`quvchilar esa diqqat bilan tinglab shu so`zlarni harakatlar orqali ifodalab berishi kerak. Bu metod o`quvchilarda dastlabki eshitib tushunish mahoratini rivojlantirishga yordam beradi.

- Grammar structure(grammatika strukturasi)

Bu metod ko`proq 3-va 4- sinf o`quvchilariga mo`ljallangan bo`lib, ingliz tili grammatikasini samarali o`qitishga yordam beradi. Bunda o`qituvchi listga turli xil zamonlardagi gaplarni yozadi va har bir gap bo`lagini alohida qilib kesib chiqadi, o`quvchilar esa gap bo`laklarini olib ularni grammatik jihatdan tartib bilan sinf doskasiga yopishtirib chiqishi kerak.

Boshqa ko`plab sohalardagidek, ingliz tilini samarali o`qitishda ham psixologiyaning o`rni ahamiyatli. Psixologiyada ham **ta`lim va tarbiya** muammolarini tadqiq qilishga bag`ishlangan soha bo`lib, bu pedagogik psixologiya deb yuritiladi. Pedagogik psixologiya shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishi, bilish faoliyatining va shaxsda ijtimoiy-ijobiy sifatlarni tarbiyalashning psixologik muammolarini o`rganadi. Shuning uchun ham yurtimizdagi oliygohlarda pedagogika yo`nalishida tahsil olayotgan talabalarga psixologiya fani ham o`tiladi. Shuningdek, mamlakatimizda xorijiy ta`limda xorijiy tillarni o`qitishning o`ziga xos

xususiyatlarini va ularga nisbatan psixologik yondashuvlarni hamda zamonaviy talablarni hisobga olgan holda mutaxassislar bilan hamkorlikda zarur o`quv

adabiyotlari, o`quv-uslubiy qo`llanmalar ishlab chiqilmoqda. Shu bilan birga, xorijiy til o`qituvchilari aynan xorijiy til o`quvchilarining psixologik xususiyatlariga e`tibor berib borishlari ta`lim sifati va samaradorligini oshirishning zarur sharti hisoblanadi. Xorijiy ta`lim sifati va samaradorligini oshirish yuzasidan bugungi kunda o`qituvchilardan bir qancha muhim vazifalarni bajarish talab etiladi.

O`qituvchi xorijiy til o`quvchilarining rivojlanishiga xos bo`lgan psixologik xususiyatlarni o`rganishi, o`quvchilar aqliy taraqqiyotining psixologik qonuniyatlaridan xabardor bo`lishi, ularning psixologik taraqqiyotiga faol ta`sir qiluvchi omillarni o`rganishi, ular bilan bo`ladigan munosabatlar uchun zarur psixologik ma`lumotlarga ega bo`lishlari kerak. Xorijiy til o`quvchisining chet tilida mustaqil, erkin fikrlash doirasini kengaytirish ular bilan suhbatlarni to`g`ri tashkil eta olishga ham bog`liq. O`quvchi yoshlar maktab bilan birga o`z hayoti o`rtasidagi bog`liqlikning psixologik jihatlarini anglashi lozim.

Xorijiy til o`qituvchilari chet tilini o`rgatish darslarida xorijiy tillarni o`qitishga asoslangan zamonaviy psixologik yondashuvlarni to`g`ri tashkil etishlari lozim. Xorijiy til o`quvchilarining tilni o`zlashtirishdagi hadiksirashi, chalg`ishi va charchashini yo`qotishga hamda salbiy o`zgarishlarning oldini olishga qaratilgan psixogimnastika mashg`ulatlarini ham o`z vaqtida qo`llay olishi o`qituvchining pedagogik mahoratiga bog`liq. Dars davomida bolaning bilish psixik jarayonlari – diqqati, fikrlashi, idroki, tasavvuri, xotirasi va ta`lim olishga qiziqishlari o`yinlar yordamida rivojlantiriladi. Guruhli o`yinlardan foydalanish muloqat ko`nikmalari, bir-birini o`zaro tushunish, sherikchilik, o`zaro mas`uliyatni sezish kabi xislatlarni rivojlantirishga ham yordam beradi. Xorijiy tillardan ingliz tilini o`rgatishda o`qituvchining bolalarda emotsional-hissiy birlikni shakllantirish uchun qisqa psixogimnastika mashqlarini tashkil etishini “English minut” mashqi asosida ko`rib chiqamiz.

English minut, ya`ni Ingliz daqiqa mashqini bajarishda uni faqat takrorlash bilan mashq qilish kerak emas. O`qituvchi “Men baxtliman” iborasini o`rgatayotganida o`quvchilar o`zlarining baxtli ekanliklarini his qila olishlariga e`tibor berishi kerak. I am happy-Men baxtliman deganda o`qituvchi o`quvchilardan qo`llarini ozgina ko`tarib, baxtli bo`lgan kayfiyatini namoyon qilishlarini so`rashi kerak. I am merry-Men quvnoqman deganda o`quvchilar boshlarini ikki tomonga qimirlatishlarini so`rashi kerak chunki bu ularda ijobiy emotsionallikni shakllantirib beradi. Ingliz tili darslarida ijodiy ko`tarinkilik muhitini vujudga keltirish o`quvchining qiziqishini, bilish jarayonini, nutqi, shxslararo munosabatlari, ijtimoiy moslashuv malakalarini rivojlantirib boradi. Psixolog olim A.K. Shamshetovanning fikriga ko`ra, xorijiy til o`qituvchilari ingliz tilini o`rgatish jarayonida o`quvchining psixologik individual

xususiyatlarini hisobga olib, ularga mos keladigan ikki yoki besh daqiqali ingliz tilida kayfiyatni ko'taruvchi psixogimnastika mashqlarini to'g'ri tashkil etib borishlari dars samaradorligini oshiribgina qolmay, o'quvchilarda pozitiv emotsional munosabatlarni ham shakllantirib boradi.

Xulosa qilib shuni aytish joziki, boshlang'ich sinf o'quvcilariga ingliz tilini o'rgatish jarayonini qiziqarli mashg'ulot tarzda olib borish, turli xil samarali va zamonaviy metodlardan foydalanish ularning shu tilni tez va tushunarli tarzda o'zlashtirishiga sezilarli darajada hissa qo'shadi. Bundan tashqari, psixogimnastik o'yinlardan foydalanib ularga shu tilni o'rganishni osonlashtirish va ularning qiziqishini oshirish ham arzigulik ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Melibayeva R.N, Usmanova X.E, Xaydarova I.O, Shamshetova A.K. Umumiy psixologiya. Toshkent, Barkamol fayz media, 2018, 29-30-31-betlar.
2. Tajibayev G.Sh. Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish: o'quv qo'llanma. Namangan, 2019, 14-bet.
3. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. Toshkent, **Universitet, 2002, 25-bet.**
4. <https://www.novakidschool.com/blog/how-to-teach-your-child-english-modern-methods-and-techniques/>
5. <https://www.twinkl.com.sg/blog/35-esl-warm-up-activities-for-small-classes>
6. <https://www.amerikaovozi.com/a/uzbekistan-english-language-education/1576673.html>